



Samarqand viloyat adliya boshqarmasi
Hay'atining 1/25-sonli majlis
BAYONI

2025-yil 24-yanvar

Samarqand shahri

Raislik qildi:

S.Sattarov— boshqarma
boshlig'i

Hay'at a'zolari:

O. Shodikulov,
Sh.Abduxalimov, M. Amirov,
E.Olimov, O. Mamayusupov

Qatnashdilar:

Boshqarmaning markaziy
apparati shuba boshliqlari

Hay'at kotibi:

Sh. Jo'rayev

KUN TARTIBI:

**Samarqand viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil I va II choraklarga
(I yarim yillikka) mo'ljallangan ish reja loyihasi muhokamasi to'g'risida**

(S. Sattarov, O.Shodikulov, Sh.Abduxalimov, M. Amirov, E.Olimov,
O.Muhammadiyev, O.Mamayusupov, S. Buriyev, S. Mamarajabov, A. Jovliyev,
G'. Madiyev, H.Uzoqov, D. Ashurov, O'. Hakimov, S. Sattarov)

Majlisning borishi:

Hay'at raisi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrdagi hay'at qarori bilan tasdiqlangan Adliya vazirligining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi ijro uchun kelib tushganligi, shunga ko'ra boshqarmaning 2025-yil I yarim yilligiga mo'ljallangan ish reja loyihasini tasdiqlash va nusxasini Strategik rejalashtirish va samaradorlikni baholash boshqarmasiga taqdim etish lozimligiga to'xtalib o'tdi.

Shundan so'ng, Samarqand viloyat adliya boshqarmasi hamda tuman (shahar) adliya bo'limlarining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejalari loyihalari yuzasidan hay'at a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

So'ngra, Samarqand viloyat adliya boshqarmasi hamda tuman (shahar) adliya bo'limlarining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi loyihasida nazarda tutilgan tadbirlarning muddatlari aniq belgilanib, maqsadga muvofiq emas deb topilgan tadbirlar chiqarib tashlandi.

Loyihalarda belgilangan tadbirlar uchun mas'ul ijrochilar barcha tadbirlarni o'z vaqtida va to'liq bajara olishlari hamda taklif va mulohazalar yo'qligini bildirdilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Samarqand viloyat adliya boshqarmasi hay'ati

Q A R O R Q I L A D I:

1.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrdagi 21/24-sonli hay'at qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Samarqand viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi 1-ilovaga muvofiq;

tuman (shahar) adliya bo'limlarining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi 2-17-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Boshqarma apparati tarkibiy bo'linmalari, tuman (shahar) adliya bo'limlari boshliqlari ish rejada ko'rsatilgan vazifa va tadbirlarni belgilangan muddatlarda va sifatli bajarilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tegishlicha boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari hamda Rejalashtirish va nazorat-tahlil sho'basi boshlig'i (M. Amirov) zimmasiga yuklatilsin.

Hay'at raisi,

Boshqarma boshlig'i



S. Sattarov

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi hay'at
majlisining
2025-yil 24-yanvardagi 1/25-son bayoniga
1-ilova

Samarqand viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ISH REJASI

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
I. ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH, ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH SOHASIDA						
1.	Quyidagi tuman adliya bo'limlari va uning tarkibiy tuzilmalari faoliyatini kompleks tekshirish: Samarqand; Nurobod. Natijasini hay'at majlisida muhokama qilish.	mart-aprel, may	M. Amirov, boshqarma tarkibiy bo'linmalari rahbarlari	Mazkur adliya bo'limlarining faoliyati boshqarma tomonidan so'nggi uch yil mobaynida kompleks tekshirilmagan.	Adliya bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va uslubiy ko'maklashish, shuningdek qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifa va funksiyalari bajarilishini ta'minlash.	1
2.	Adliya organlari va muassasalari tomonidan o'rnatilgan quyosh panellari ishlab chiqarayotgan elektr energiyasini doimiy (onlayn) ravishda monitoring qilish uchun elektron tizim o'rnatish.	may	O. Yusupov, R. Maxmudov	Boshqarma tomonidan o'rnatilgan quyosh panellaridan olinayotgan elektr energiyasi miqdorini nazoratini doimiy ravishda amalga oshirishda qiyinchiliklarni vujudga kelishi va ortiqcha vaqt talab qilinmoqda.	Quyosh panellaridan olinadigan elektr energiyasining doimiy monitoringni yo'lga qo'yish.	4
II. HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTINI O'RGANISH VA METODIK TA'MINLASH, INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH, PREZIDENT HUJJATLARI IJROSINI NAZORAT QILISH SOHASIDA						
3.	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi va uning tizim tashkilotlari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi;	yanvar-fevral	E.Olimov, G'. Ma'diyev, A. Jovliyev, D. Ashurov, O'. Xakimov, O. Muhammadiyev, S. Mamarajabov	Amaldagi malaka talablari, o'quv reja va dasturlari mazmun jihatidan bitiruvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilmagan, o'quv rejalarida nomutaxassislik fanlari ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari bilan o'zaro	Talabalarning ishlab chiqarish, malakaviy va boshqa turdagi amaliyotlarini mazmunli tashkil etish uchun uslubiy baza takomillashtiriladi hamda o'quv rejalarida fanlar sonini nomutaxassislik fanlari hisobiga bosqichma-bosqich	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; yuridik xizmat faoliyati; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Vazirlikka axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.			hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlar samarali yo'lga qo'yilmagan, ish beruvchilarning oliy ta'lim mazmunini shakllantirishdagi ishtiroki yetarli emas. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg'ulotlar samarali tashkil etilmagan, tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga yetarlicha javob bermaydi.	kamaytirish hamda tutashlikdagi fanlarni tanlov fanlari ro'yxatiga kiritish.	
4.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining huquqlari kafolatlarini oshirish maqsadida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish. Shuningdek, aksiya doirasida nogironligi va kasalligi mavjud shaxslarga davolanishi uchun order berish hamda aholining ehtiyojmand toifalarini tibbiy xizmatlardan foydalanishi holatlarini o'rganish. Aksiya natijasi bo'yicha vazirlikka axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	fevral-mart	A. Jovliyev, D. Ashurov, O. Muhammadiyev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga nisbatan qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kafolatlarining qo'llanmasligi kabi va boshqa holatlari bo'yicha murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish orqali ularning huquqlari kafolatlarini ta'minlanadi. Nogironligi yoki kasalligi mavjud shaxslarga davolanishi uchun order berish hamda aholi ehtiyojmand toifalarining tibbiy xizmatlardan foydalanishi, masalasida murojaatlar ortib bormoqda.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti tahlil qilinadi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko'mak ko'rsatiladi hamda aniqlangan huquqiy muammo va kamchiliklari bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
				Shuningdek, order berish jarayoni uzoq vaqt olayotganligi sababli fuqarolarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.		
5.	Samarqand viloyat Sport boshqarmasi va uning tizim tashkilotlari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan, Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; yuridik xizmat faoliyati; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda Vazirlikka axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	mart-aprel	E.Olimov, G'. Ma'diyev, A. Jovliyev, D. Ashurov, O'. Xakimov, O. Muhammadiyev, S. Mamarajabov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Boshqarma faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	Boshqarma faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	3
6.	Aholi muammolarini joyiga chiqqan holda o'rganish orqali, har bir fuqaroga individual yondashuvni joriy etishga qaratilgan "Bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga" shiori ostida aholiga huquqiy yordam berishga qaratilgan huquqiy aksiya o'tkazish.	may	O. Muhammadiyev, A. Jovliyev, O.Yusupov, R. Maxmudov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	"Bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga" shiori ostida aholiga huquqiy yordam berishga qaratilgan huquqiy aksiya o'tkazish orqali muammolarni joyiga chiqqan holda o'rganib, har bir fuqaroga maksimal darajada individual yondashgan holda huquqiy maslahat berish	Aholining huquqiy muammolarini maksimal darajada joylardagi mahallalarning o'zida hal etish. Fuqarolarga huquqiy tushuntirish berish orqali targ'ibotni amalga oshirish.	4

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
				orqali jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish zarur		
7.	Yoshlar ishlari agentligi Samarqand viloyati boshqarmasi faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan, Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; yuridik xizmat faoliyatini; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda Vazirlikka axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	may-iyun	E.Olimov, G'. Ma'diyev, A. Jovliyev, D. Ashurov, O'. Xakimov, O. Muhammadiyev, S. Mamarajabov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Agentlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	Agentlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	3
8.	Samarqand viloyat Bojxona boshqarmasi va uning tizim tashkilotlari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan, Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi;	iyun	E.Olimov, G'. Ma'diyev, A. Jovliyev, D. Ashurov, O'. Xakimov, O. Muhammadiyev, S. Mamarajabov, H.Uzoqov	Mazkur sohada boshqarma tomonidan oxirgi uch yillikda o'rganish va monitoring o'tkazilmagan. Bojxona ma'muriyatchiligi va bojxona imtiyozlarini qo'llash bilan bog'liq ko'plab murojaatlar kelib tushmoqda.	Bojxona ma'muriyatchiligi takomillashtirish va bojxona imtiyozlarini qo'llash bo'yicha yagona huquqni qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish.	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutlayotgan natija)	Baholash
	inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; yuridik xizmat faoliyatini; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda Vazirlikka axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
9.	Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlash maqsadida "Xodimlarning mehnat huquqi kafolati" nomli "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish. Aksiya natijasi bo'yicha Vazirlikka axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	iyun	A. Jovliyev, O. Muhammadiyev tuman (shahar) adliya bo'limlari	Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlanmayotganligi va boshqa kamchiliklar bo'yicha murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlash yo'nalishida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish orqali ularning huquqlari kafolatlari ta'minlanadi.	Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlash yo'nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti tahlil qilinadi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko'mak ko'rsatiladi hamda aniqlangan huquqiy muammo va kamchiliklari bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.	3
10.	Viloyatda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq topshiriqlar ijrosini tahlil qilish. Natijasi bo'yicha Vazirlikka tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	iyun	G'. Madiyev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	"Ijro.gov.uz" tizimi orqali ayrim topshiriqlar ijrosi ta'minlanmaganligi, mablag' yetishmovchiligi hamda mas'ul ijrochilarning bu borada ishlarni to'g'ri tashkil etmaganligi aniqlandi. Shu bois, ushbu sohani tahlil qilish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish zaruriyati mavjud.	Mazkur soha bo'yicha hududlarda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma va takliflar tayyorlanadi.	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
IV. HUQUQIY XIZMAT VA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR SOHASIDA						
11.	“Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida notariuslar tomonidan ko‘chmas mulkni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yuzasidan talabnoma yuborish holatini kameral tekshirish orqali o‘rganish. Natijasi yuzasidan tahliliy ma’lumot tayyorlash va tegishli chora qo‘llash.	fevral	A. Primov	Notariuslar tomonidan “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali belgilangan tartibda notarial harakatga oid ma’lumotlarni vakolatli organga yuborilishi talablariga rioya qilinishi ahvolini tahlil qilish.	Notariuslar tomonidan notariat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi, shu jumladan, notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notarial harakatlar maxfiyligiga va notarius qasamyodiga rioya qilinish holatini o‘rganish.	3
12.	Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius M.Normatov, Kattaqo‘rg‘on shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius E.Sharipov, Kattaqo‘rg‘on tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius S.Shamsiddinova, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius N.Isakulova, Urgut tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius F.Xursandov, Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius E.Axtamov,	fevral fevral mart mart aprel aprel	A.Primov	Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-martdagi 156-son Qarori bilan tasdiqlangan “Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, Notariuslar ish faoliyatida rejali tekshirish uch yilda kamida bir marta o‘tkaziladi. Notarius ish faoliyatini dastlabki tekshirish u ish faoliyatini boshlaganidan bir yil o‘tgandan so‘ng amalga oshiriladi.	Notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notariat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga, notarial harakatlar maxfiyligiga va notarius qasamyodiga rioya qilinishi ustidan nazoratni ta’minlash.	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius A.Tashtemirov, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius A.Umarov, Kattaqo'rg'on shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius O.Botirov, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius M.Kadirovalar faoliyatini kompleks tekshirish. Natijasiga ko'ra tegishli tas'ir chorasi qo'llash.	may may iyun iyun				
13.	O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi Samarqand viloyat bo'limi, O'zbekiston nogironlar jamiyati, O'zbekiston karlar jamiyati va O'zbekiston Ko'zi ojizlar jamiyati Samarqand viloyat bo'limi va tuman (shahar) bo'linmalari faoliyatini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish.	mart-iyun	S. Buriyev	Mazkur nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati oxirgi 3 yilda o'rganilmagan.	Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi, kelgusida qonunbuzilish holatlarini oldini olishni ta'minlash	3
V. DAVLAT XIZMATLARI SOHASIDA						
14.	Viloyat va tuman (shahar) hokimliklarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-martdagi 124-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat uy-joy	mart-aprel	D. Ashurov, V. Jumanov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Mazkur soha yangi tashkil qilingan bo'lib, boshqarma tomonidan o'rganish va monitoring o'tkazilmagan. Shuningdek, Qaror bilan	Soha yangi tashkil qilingan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi Qaror va Nizom ijrosini bir xilda va izchil qo'llanilishini ta'minlash.	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	fondidan foydalanish va uni tasarruf etish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablarini o'rganish va tahlil qilish. Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish va taklif kiritish.			tasdiqlangan Nizomga muvofiq ko'rsatiladigan davlat xizmatlaridan foydalanish uchun jismoniy shaxslar faqatgina Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda — YIDXP) orqali murojaat qilishlari belgilangan.		
15.	Tuman va shahar FHDY bo'limlarida O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, Vazirlar Mahkamasining 550-qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalarini" hamda Adliya vazirining 2022-yil 17-dekabr kundagi 29-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ish yuritish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma" talablariga 2024-yil boshidan bugungi kunga qadar bo'lgan holatiga rioya etish va to'lovlar undirish ahvoli yuzasidan quyidagi tuman(shahar) FHDY bo'limlarida o'rganish o'tkazish: Payariq tuman 1 va 2-son FHDY bo'limlari, Oqdaryo, Paxtachi tuman bo'limlari hamda viloyat FHDY arxivi,	yanvar fevral	O'.Hakimov	Vazirlar Mahkamasining 550-qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalarini" 222-bandi	Qonunosti hujjatlarini turlicha qo'llash holatlariga barham berilishini ta'minlash.	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	Narpay, Pastdarg'om 1 va 2-son bo'limlari, Kattaqo'rg'on shahar va Samarqand shahar 5-son bo'limlari, Samarqand shahar 1, 2 va 3-son bo'limlari, Samarqand shahar 4-son, Urgut tuman 1 va 2-son bo'limlari. Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir chorasi qo'llash.	mart aprel may iyun	O'.Hakimov			
16.	2024-yil 1-yanvardan tuman va shahar davlat xizmatlari markazlarida yangi va yo'qolgan hamda eski namunadagi haydovchilik guvohnomalarni berishda qonun hujjatlari talablariga rioya etilganligi ahvolni o'rganish.	iyun	O'.Hakimov	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.03.20217-yildagi Milliy haydovchilik guvohnomasining hamda avtomototransport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning yangi namunalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 116-son qarori	Qonun hujjatlarini turlicha qo'llash holatlariga barham berilishini ta'minlash.	3
VI. INTELLEKTUAL MULK SOHASIDA						
17.	Viloyat hududida joylashgan yirik savdo majmualarida realizatsiya qilinayotgan tovarlarning kontrafaktlik darajasini o'rganish hamda ushbu hududlarni kontrafaktsiz hududga aylantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.	aprel	H. Uzoqov	Viloyatdagi yirik savdo majmularida ayrim tovarlarning kontrafakt nusxalari uchramoqda. Shunga ko'ra, yirik savdo obyektlarida profilaktik tadbirlar o'tkazish orqali ularni "Kontrafaktsiz hudud"ga aylantirish bo'yicha amaliy yordam beriladi.	Yirik savdo majmualarini kontrafaktsiz hududga aylantirish	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
18.	Hunarmandchilik buyumlarining dizaynini intellektual mulk obyekti sifatida ro'yxatga olish, baholash, sug'urtalash, tashkilot balansida aks ettirish va uni sotish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish istiqbollarini o'rganish, natijasi yuzasidan Vazirlikka axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	may	H. Uzoqov	Hunarmandlar tomonidan o'z buyumlarini intellektual mulk sifatida muhofaza qilish sustligi hamda savdo nuqtalarida hunarmandchilik buyumlari faqat suvenir sifatida past baholarda sotilayotganligi aniqlandi.	Ro'yxatdan o'tkazilgan hunarmandchilik buyumlari sonini oshirish va bunday buyumlarni qo'shimcha qiymat bilan sotish imkoniyatini yaratish.	2

* Ish rejada nazarda tutilgan tadbirlar Adliya boshqarmasining mavjud resurslari, moliyaviy mablag'lari va moddiy-texnik vositalari doirasida amalga oshiriladi. Alohida resurslar talab qilinmaydi.

** Ish rejada belgilangan tadbirlar mazkur reja ilovasidagi jadvalga muvofiq tegishli baholash yo'nalishi (raqami) bo'yicha baholanadi. Mezon balini aniqlash ikkinchi ko'rsatkichni (amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ko'rsatkich miqdorini) mezon bo'yicha maksimal ballga ko'paytirish, mazkur natijani birinchi ko'rsatkichga bo'lish orqali amalga oshiriladi. Bunda, agar ikkinchi ko'rsatkich birinchi ko'rsatkichdan katta bo'lsa, ikkinchi ko'rsatkich miqdori birinchi ko'rsatkichga teng qilib olinadi.